

№433, 3-dekabr, 2021 y.

**COVID  
19**

COVID-19 ga qarshi vaksinalarning  
ishlanmalari bo'yicha

**DAYJEST**

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi  
Ilmiy-texnik axborot markazi











Toshkent-2021

# Jahonda pandemiya bilan bog'liq vaziyat

2021 y. 2-dekabr holatiga ko'ra

Umumiy zararlanganlar soni	-	263 727 823	(+ 670 266)
Sog'ayganlar soni	-	238 016 424	(+ 462 231)
Vafot etganlar soni	-	5 241 869	(+ 8 475)

## Mamlakatlar bo'yicha bemorlar soni

	AQSh	-	49 573 122	(+ 120 441)
	Hindiston	-	34 606 541	(+ 9 765)
	Braziliya	-	22 105 872	(+ 11 413)
	Buyuk Britaniya	-	10 276 007	(+ 48 374)
	Rossiya	-	9 669 718	(+ 32 837)
	Turkiya	-	8 818 144	(+ 22 556)
	Fransiya	-	7 725 114	(+ 49 610)
	Eron	-	6 121 757	(+ 4 312)
	Argentina	-	5 953 310	(+ 71 887)
	O'zbekiston	-	193 633	(+ 209)

Manba: <https://www.worldometers.info/coronavirus/>




# O'zbekistonda COVID-19 qarshi vaksinatsiya bo'yicha hisobot

2021 y. 1-dekabr holatiga ko'ra

Hududlar	Jami emlanganlar soni	Bir kunda emlanganlar soni
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 820 396	12 544
Andijon viloyati	3 278 435	17 854
Buxoro viloyati	1 966 688	11 089
Jizzax viloyati	1 318 105	4 360
Qashqadaryo viloyati	2 570 498	21 833
Navoiy viloyati	1 222 652	3 604
Namangan viloyati	3 383 135	16 293
Samarqand viloyati	3 643 105	42 583
Surxondaryo viloyati	2 775 567	17 072
Sirdaryo viloyati	797 282	2 819
Toshkent viloyati	3 279 800	19 649
Farg'ona viloyati	3 742 259	31 489
Xorazm viloyati	2 099 274	13 324
Toshkent sh.	2 285 030	27 705
<b>Jami</b>	<b>34 182 226</b>	<b>242 218</b>


Manba: SSV matbuot kotibi // <https://t.me/ssvmatbuotkotibi>





## Bugungi kunga qadar respublikamizda SARS-CoV-2: B.1.1.529. (Omikron) virusi aniqlanmadi

Hozir respublikamizda SARS-CoV-2 uchun ishlatilayotgan PZR diagnostikasi ushbu variantni aniqlashi mumkin. Kasallik belgilari mavjud bo'lish yoki bo'lmashidan qat'iy nazar Omikron virusi tarqalgan hududlarga borib kelgan barcha hamyurtlarimizdan olingan namunalarni tanlab olish yo'li orqali chuqurroq o'rganish orqali ushbu virus hududimizga kirib kelgan yoki kirib kelmaganligiga baho berish mumkin [2].



Eslatib o'tamiz, SARS-CoV-2 virusining yangi shtammlarini o'rganish uchun Innovatsion rivojlantirish vazirligi huzuridagi Ilg'or texnologiyalar markazida yuqumli kasalliklar shifoxonasidan PZR usulida olingan musbat natijali namunalar PZR skriningi orqali tekshiruvdan o'tkaziladi. Ular orasidan mutatsiyaga uchragan namunalar aniqlansa, ularning genom qismlarida "omikron shtamm"i mavjudligi o'rganiladi va tasdiqlanadi. Omikron shtammi o'rganilgan namunalarda aniqlansa, qo'shimcha xabar beriladi [3].

# Pfizer / BioNTech vaksinasining kuchaytiruvchi dozasi Omicron shtammidan yuqori darajadagi himoyani ta'minlaydi

BioNTech farmatsevtika kompaniyasi asoschilari vakcina koronavirusning yangi Omicron shtammidan, ayniqsa kuchaytiruvchi dozadan keyin yuqori darajada himoya qilishi to'g'risida ma'lum qildi.

BioNTechni ishlab chiqish bo'yicha olimlar vakcina bir necha darajalarda: birinchidan-antitanalar, ikkinchidan - immunitet hujayralarini himoya qilishini ta'kidladilar. "Biz vaksinaning uchinchi dozasi so'ng himoya darajasi ancha yuqori ekanligiga ishonchimiz komil", dedi BioNTech rahbari Ugur Shahin [4].



"Siz yangi Omicron shtammidan qo'rquvga tushmasligingiz lozim. Vahima qilishimiz uchun hech qanday sabablar mavjud emas. Biz ko'p sonli mutatsiyalardan xabardormiz. Vakcina kasallikning og'ir kechishidan himoya qiladi", dedi Shahin. Olimning so'zlariga ko'ra, koronavirusga qarshi vaksinaning kuchaytiruvchi dozasi barcha insonlar uchun zarur.

"Ayniqsa, ma'lum bir yosh guruhi uchun. Olimlarning fikriga ko'ra uchinchi doza 20 barobar ko'proq ya'ni 97 foizgacha himoya qiladi. Omicron dan qat'i nazar, uchinchi dozani iloji boricha tezroq qabul qilishingizni tavsiya qilamiz", deya qo'shimcha qildi olim [5].



# Saqich ko‘rinishidagi vaksina og‘izda koronavirus zarralarining taxminan 95 foizini ushlab qoladi

Pensilvaniyalik mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan saqich og‘izda koronavirus zarralarining 95% ni samarali ushlab qolishi aniqlandi [6].



Shunisi e‘tiborga loyiqliki, ushbu saqich taniqli vaksina asosida ishlab chiqilgan, ammo bu ixtiroda olimlar faqat virusni o‘ziga to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb qiladigan ma‘lum bir ACE2 oqsilidan foydalanganlar. Saqich tarkibida virusli zarralarni “tutib qo‘yuvchi” oqsil mavjud bo‘lib, virusni yuqtirgan insonlar muloqot qilganda, nafas olganda yoki yo‘talganda virusli

tomchilarning tarqalishini cheklashi mumkin [7].

Saqichning harakati aniq belgilangan tizim kabi ishlaydi. Olimlarning fikriga ko‘ra, saqich ishlatilganda ACE2 oqsillari faollashadi, bu esa o‘z navbatida koronavirus virusi “hujum” qilganda u tuzoqqa tushib qoladi va virusni yengadi va u tarqalmaydi [8]. Bundan tashqari, olimlarning fikricha, saqich oddiy saqichdan deyarli farq qilmaydi. O‘rtacha



haroratda bir necha yilgacha saqlanishi mumkin [9].




Avvalroq Rossiya Mudofaa vazirligining Markaziy ilmiy-tadqiqot instituti (TsNII) saqich ko‘rinishidagi COVID-19 koronavirus infeksiyasiga qarshi dori yaratishni boshlagani haqida RBKga harbiy idora manbasida xabar bergan edi. Unga ko‘ra, bu boradagi ishlar Mudofaa vazirligining 48-Markaziy ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan olib borilmoqda.

Ilgari ushbu harbiy institut Gamaleya tadqiqot markazi (SIC) bilan hamkorlikda “Sputnik V” COVID vaksinasini tadbiq qilishda ishtirok etgan.

# Xitoyda COVID-19 ning barcha shtammlariga qarshi universal vaksina yaratish uchun antitanacha topildi


Xitoylik olimlar aniqlagan ushbu antitanacha COVID-19 ning barcha shtammlarining ta'sirini neytrallashtira oladi. Bu haqda bioRxiv elektron kutubxonasida e'lon qilingan ma'lumotlarda qayd etilgan [10,11].

Olimlarning ta'kidlashicha, 35B5 antitanachasi "Omikron" shtammini ham zararsizlantirishga qodir.



Ushbu antitanacha koronavirusning og'ir shaklini boshdan o'tkazgan bemorlarning qon namunalarini o'rganish jarayonida kashf qilindi. Olimlar antitanachalarni ishlab chiqaruvchi hujayralarni qon namunasidan ajratib olib, koronavirusning turli qismlariga ta'sirini kuzatishgan.

Qayd etilishicha, ushbu 35B5 antitanachasi universal vaksina yaratish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin [12].



# Manbalar

1. Reported Cases and Deaths by Country, Territory, or Conveyance // <https://www.worldometers.info/coronavirus/> (2.12.2021)
2. На сегодняшний день в Узбекистане не обнаружен вирус SARS-CoV-2: B.1.1.529 «Омикрон» // <https://t.me/vaksinauzb> (2.12.2021)
3. В Мининноваций выяснили, обнаружен ли в Узбекистане новый штамм "омикрон" // <https://uz.sputniknews.ru/20211201/v-mininnovatsiy-vyasnili-obnarujen-li-v-uzbekistane-novyy-shtamm-omikron-21604013.html> (2.12.2021)
4. Бустерная доза вакцины дает высокий уровень защиты от штамма "Омикрон" — BioNTech // <https://coronavirus.tsn.ua/ru/busternaya-doza-vakciny-daet-vysokiy-uroven-zaschity-ot-shtamma-omikron-biontech-1922347.html> (2.12.2021)
5. Разработчики BioNTech: Бустерная доза вакцины против коронавируса защищает от тяжелых последствий штамма Omicron // <https://babel.ua/ru/news/73579-razrobotchiki-biontech-busternaya-doza-vakciny-protiv-koronavirusa-zashchishchaet-ot-tyazhelyh-posledstviy-shtamma-omicron> (2.12.2021)
6. Жевательная резинка задержит большую часть коронавирусных частиц в полости рта // [https://goroday.ru/society/zhevatelnaya-rezinka-zaderzhit-bolshuyu-chast-koronavirusnyh-chastich-v-polosti-rta-50029?utm\\_source=yxnews&utm\\_medium=desktop](https://goroday.ru/society/zhevatelnaya-rezinka-zaderzhit-bolshuyu-chast-koronavirusnyh-chastich-v-polosti-rta-50029?utm_source=yxnews&utm_medium=desktop) (2.12.2021)
7. Experimental Chewing Gum Could Reduce Coronavirus Spread // <https://www.webmd.com/lung/news/20211124/chewing-gum-could-stop-covid> (2.12.2021)
8. Вакцина в виде жевательной резинки почти на 100% остановила распространение COVID-19 // <https://novostivl.ru/post/181327/> (2.12.2021)
9. Жевательная резинка задержит большую часть коронавирусных частиц в полости рта // [https://vevby.ru/79316-zhevatelnaya-rezinka-zaderzhit-bolshuyu-chast-koronavirusnyh-chastich-v-polosti-rta-gojmanvictor?utm\\_source=yxnews&utm\\_medium=desktop](https://vevby.ru/79316-zhevatelnaya-rezinka-zaderzhit-bolshuyu-chast-koronavirusnyh-chastich-v-polosti-rta-gojmanvictor?utm_source=yxnews&utm_medium=desktop) (2.12.2021)
10. A human monoclonal antibody potently pan-neutralizes SARS-CoV-2 VOCs by targeting RBD invariant sites // <https://www.biorxiv.org/content/10.1101/2021.11.29.470356v1> (2.12.2021)
11. В Китае обнаружили антитело для разработки универсальной вакцины от COVID-19 // <https://russian.rt.com/science/news/934141-vakcina-razrabotka-antitelo> (2.12.2021)
12. Ученые обнаружили антитело для создания универсальной вакцины от COVID-19 // <https://www.vedomosti.ru/society/news/2021/12/01/898517-uchenie-obnaruzhili-antitelo> (2.12.2021)



**COVID  
19**

**Coronavirus  
Vaccine**



O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi  
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2021